



DAVLATNING ASOSIY VA QO'SHIMCHA BELGILARI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Choriyev Islom To'liqin o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Ijtimoiy fanlar fakulteti, Yurispuridensiya talabasi
ORCID: 0009-0005-2275-5644

Email: islomchoriyev607@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18951357>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 09-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 11-mart 2026 yil

KEYWORDS

davlat belgilari, asosiy belgi, qo'shimcha belgi, hudud, aholi, davlat hokimiyati, suverenitet, soliq tizimi, davlat ramzlari, pul birligi, davlat nazariyalari, ilohiy nazariya, shartnoma nazariyasi, zo'rlov nazariyasi, iqtisodiy nazariya, marksistik nazariya, legitimlik, normativ-huquqiy asos.

ABSTRACT

Ushbu maqolada davlatning asosiy va qo'shimcha belgilari nazariy-metodologik yondashuvlar asosida keng qamrovli tahlil qilinadi. Asosiy belgilar — hudud, aholi, davlat hokimiyati va suverenitet — mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari orqali chuqur izohlanadi. Tadqiqotda Odilqoriev, Saidov, Xidoyatov kabi o'zbek olimlari hamda Vebber, Bodin, Jeykobz singari klassik nazariyachilar fikrlari solishtirilgan holda davlat belgilari mazmuni ochib beriladi. Qo'shimcha belgilar — davlat ramzlari, pul birligi, qurolli kuchlar, poytaxt va ayniqsa soliq tizimi — davlatning barqaror faoliyat yuritishidagi zaruriy iqtisodiy-moliyaviy asos sifatida izohlanadi. Shuningdek, davlatning vujudga kelishiga doir ilohiy, shartnoma, zo'rlov, patriarxal, iqtisodiy va marksistik nazariyalar qiyosiy o'rganilib, zamonaviy davlatning shakllanishida har bir nazariyaning nisbiy o'rni ko'rsatiladi. Tadqiqot natijasida davlatning asosiy belgilari bir-biri bilan uzviy bog'liq murakkab tizim bo'lib, qo'shimcha belgilar ushbu tizimning mustahkamlanishida muhim rol o'ynashi xulosasi keltiriladi.

Maqolam boshida olimlar o'rtasida vujudga keladigan bir bahsli vaziyat bilan boshlasam. Huquqshunoslar olimlar o'rtasida davlat belgilari haqida va ularning tarkibiga kiruvchilar haqida turli bahslar ketadi xususan ayrim olimlar soliq tizimining mavjud bo'lishini qo'shimcha belgi sifatida aytsa qolganlari buni asosiy belgi ekanligini ta'kidlashadi. Shu vaziyatdan kelib chiqib maqolam asosini tashkil qiluvchi uchta savolni birinchi berib olsak;

- 1.Davlatning asosiy va qo'shimcha belgilarini nima o'zi?
- 2.Soliq tizimining asosiy yoki qo'shimcha belgilar ekanligini qayerdan bilsak bo'ladi?
- 3.Davlatning vujudga kelishiga oid eng mashhur nazariyalar qaysi va asoschilari kimlar?

Davlatshunoslik nazariyasida davlatning asosiy va qo'shimcha belgilari masalasi doimo muhim ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, soliq tizimi qaysi belgi, asosiy yoki qo'shimcha belgi sifatida qaralishi haqida turli qarashlar mavjud. Olimlar fikricha, davlatni boshqa jamoat tashkilotlaridan ajratib turuvchi fundamental belgilar hudud, aholi, davlat hokimiyati va suverenitetdan iborat bo'lib, mazkur belgilersiz davlatning mavjud bo'lishi

mumkin emas. Shu bilan birga, davlat ramzlari, pul birligi, qurolli kuchlar, poytaxt va soliq tizimi kabi qo'shimcha belgilar davlat apparatining mustahkam faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan muhim institutsional elementlardir.

Davlatning aynan davlat sifatida tashkil topishi, uning davlat bo'lishiga doir ayrim asosiy belgilar mavjud. Bu belgilarni huquqshunos olim Odilqoriyev.X.T shunday izohlaydi: "Davlatni boshqa jamoat tashkilotlaridan ajratib turuvchi asosiy belgilari hudud, fuqarolar, ommaviy hokimiyat, yagona soliq tizimi kabilar bo'lib, mazkur belgilersiz davlat muayyan mavjudlik kasb eta olmaydi".[1] Ushbu qarashga mening fikrim shuki, dialektik jihatdan yondashsak, tarixda, hozirda va albatta kelajakda davlat o'zining siyosiy hokimiyatini amalga oshirish uchun turli islohotlar qiladi va bu islohotlar asosan mana shu davlatning asosiy belgilari ustidan amalga oshiriladi. Ana shunday asosiy belgilardan biri bo'lmish SOLIQ tizimiga to'xtalsak, u qanday belgi? O'zi kerakmi bu tizim va agar kerak bo'lsa buning sababi nima, unga qanday amaliy misollar keltirsak bo'ladi? Avvalo mana shularni ko'rib o'tamiz. Soliqlarning mavjud bo'lishi davlatning eng asosiy belgilaridan biri. Chunki soliq har bir davlatning mavjudligi va faoliyatini yuritishini ta'minlab beruvchi asosiy iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Davlatning barcha belgilari uning moliyalashtirilishini talab qiladi, soliqlar esa bu moliyaviy resurslarning asosiy manbaidir. Aynan fuqarolar hayotida farovonlikni ta'minlash uchun zaruriy belgi bu soliqlardir, to'g'ri jarimalar, yig'implardan ham shakllanadi, lekin statistic-matematik metoddan foydalangan holda tahlil qilsak ham asosiy qismni soliqlar tashkil etadiva bunga yana qaytamiz. Endi esa asosiy belgilarga to'xtalsak, masalan aholining mavjudligi, davlat ma'lum bir hududda yashovchi, o'zaro ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar bilan bog'langan insonlar jamlanmasidir. Aholi davlatning insoniy resursi bo'lib, uning soni, tarkibi va sifat ko'rsatkichlari davlatning rivojlanish darajasini belgilaydi. Bunga chet el olimlaridan biri Maks Vebber ta'kidlaganidek,

"Davlat - bu ma'lum bir hududda fizik kuchni qonuniy ishlatish monopoliyasiga ega bo'lgan insonlar jamiyati" [2] Vebberning ta'rifi davlatning eng muhim xususiyati legitim zo'rlik monopoliyasiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bu davlatni boshqa ijtimoiy tashkilotlardan (masalan, partiyalar, nodavlat tashkilotlar, diniy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va boshqalar) keskin farqlovchi belgidir. Bu monopoliyasiz davlat o'z qonunlarini amalga oshirish, tartib va xavfsizlikni ta'minlash, soliqlarni undirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Vebberning fikri hokimiyat va hudud belgilarining o'zaro bog'liqligini ham ochib beradi: ma'lum bir hududda yashovchi aholi ustidan zo'rlik ishlatish huquqi bunga bitta misol va mashhur o'zbek professori Akmal Saidov "Davlat aholisining huquqiy maqomi uning fuqarolik jamiyatini shakllantirish darajasini ko'rsatadi" [3] deb ta'rif beradi, buni tahlil qiladigan bo'lsak, Saidovning fikri aholi belgisining faqat soni va joylashishi emas, balki uning huquqiy holati bilan ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Rivojlangan fuqarolik jamiyatida aholi davlat bilan faol munosabatda bo'lib, nafaqat majburiyatlarini bajaradi, balki huquqlarini talab qiladi shu o'rinda burchlar ham vujudga keladi, bunga yaqqol misol O'zR konstitutsiyasida fuqarolarning burchlari ham huquq va erkinliklari ham keltirilgan. Bu davlatning demokratikligini va uning hokimiyatining qanchalik legitim ekanligini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, aholi bu faqat "insoniy resurs" emas, balki davlatning huquqiy subyekti hisoblanadi. Davlatning bu asosiy belgisidan shuni xulosa qilsak bo'ladi, demak, aholisiz davlat davlat bo'lmaydi. Keyingi asosiy belgisi bu uning HUDUDIdir. Davlatning ma'lum chegaralar bilan ajralgan yer maydoni uning hududiy jihatdan suveren ekanligini ifodalaydi. Hudud

davlatning geosiyosiy, iqtisodiy va ekologik mavqeini belgilaydi. Bu qarashga siyosatshunos va huquqshunos olimlaridan biri Jeyn Jekobs: "Hududiy yaxlitlik va chegara mustahkamligi davlatning suverenitetining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi"[4], deydi ya'ni Jekobs geografik nuqtai nazardan davlatning hudud mavjudligi belgisini tahlil qiladi. Uning fikricha, hudud nafaqat yer maydoni, balki uning yaxlitligi va chegaralarining mustahkamligi ham muhimdir. Chegaralarning aniq va xalqaro miqyosda tan olinishi, ularni himoya qilish qobiliyati davlatning tashqi suverenitetining namoyonidir. Bu suverenitet bo'lmasa, davlatning boshqa belgilari (masalan, soliq yig'ish yoki qonun chiqarish) amalda o'z kuchini yo'qotadi, chunki chet el davlatlari uning ichki ishlariga aralashishi mumkin bo'lib qoladi. Davlat siyosiy ta'sir o'tazishi uchun hudud kerakdir. Gagimizning isboti konstitutsiyamizning 3-moddasida keltirilgan ya'ni davlat suveren, o'zining milliy-davlat, ma'muriy-hududiy jihatdan qanday tuzilishini, organlar tizimi va ichki hamda tashqi siyosatni mustaqil amalga oshirishi keltirilgan, shu o'rinda keyingi eng asosiy normasida davlat chegarasi va hududi daxlsizligi va bo'linmasligi keltirilgan. [5]

Keying belgi esa, bu DAVLAT HOKIMIYATI dir, davlat hokimiyati - bu boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish uchun maxsus apparat (ijro, sud, qonun chiqaruvchi organlar) mavjudligini anglatadi. O'zbekistonda bu hokimiyat vakolatlartiga ko'ra uchga bo'linadi:

- Qonunni chiqaradigan
- Ijro etadigan
- Sud (muxofaza qiladigan)

Bunga asos 11-moddamizdir, unga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi" [5], Davlat hokimiyatiga Botir Xidoyatov "Davlat hokimiyatining samaradorligi uning demokratik legitimiyilgiga bog'liq" [6] deb ta'rif beradi. Ya'ni Xidoyatovning fikri zamonaviy davlat tushunchasiga muvofiq. U hokimiyatning samaradorligi uning qonuniyligi (qonunlarga rioya qilishi) va legitimligi (aholi tomonidan ma'qullanishi) bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Zo'rlikka asoslangan hokimiyat (masalan, diktatura) qisqa muddatda samarali bo'lishi mumkin, ammo uzoq muddat uchun barqaror hisoblanmaydi. Demak, hokimiyat belgisi nafaqat apparatning mavjudligi, balki uning ishlash sifatini ham o'z ichiga oladi. Siyosiy kuch bu-hokimiyatdir.

Keying belgi bu SUVERINITET dir. Davlatning asosiy belgilari uning suvereniteti va mustaqilligini ifodalaydi. Byudjet-soliq tizimi esa davlatning moliyaviy mustaqilligini ta'minlovchi asosiy predmet hisoblanadi. Zamonaviy davlatlar byudjet-soliq tizimini samarali boshqarish orqali o'zining iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshiradilar. Suverenitet davlatning ichki va tashqi ishlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatidir. Ichki suverenitet davlatning o'z hududida oliy hokimiyat egasi ekanligini, tashqi suverenitet esa xalqaro munosabatlarda mustaqilligini anglatadi. Bunga huquqshunos olimi Jan Bodin shunday ta'rif beradi "Suverenitet - bu davlatning boshqa hokimiyatlar qaramligida bo'lmagan oliy hokimiyatidir"[7]. Shunaqa qarash blan Bodin suverenitet tushunchasining klassik ta'rifini beradi. Uning fikriga ko'ra, suverenitet bo'linmas va uzatib bo'lmadir. Bu davlatning ichkarida (cheklov, kuchli korporatsiyalar, mahalliy hokimlar) va tashqarida (boshqa davlatlardan) mustaqil bo'lishini anglatadi. Bu fikr hozirgi kungacha davlatning eng muhim atributi sifatida qaraladi. Suverenitet bo'lmasa, davlat mustaqil siyosat olib borolmaydi demoqchi.

Bu fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, davlatning belgilari bir-biridan ajralmas va o'zaro chambarchas bog'liq.

Hudud va aholi bo'lmasa, boshqarish obyekti bo'lmaydi. Hokimiyat va suverenitet bo'lmasa, ularni boshqarish imkoni bo'lmaydi. Soliq tizimi bo'lmasa, bu hokimiyatni qo'llash va suverenitetni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar bo'lmaydi. Har bir olimning fikri ushbu murakkab tizimning turli jihatlarini, uning mantiqiy asosini, funktsiyasini va zamonaviy talablarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Davlatning qo'shimcha belgilari ko'p ular sirasiga:

- Davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya)
- Qurolli kuchlar
- Pul Birligi
- Poytaxt

Pul birligi nafaqat iqtisodiyotning asosiy vositasi, balki davlat suverenitetining ramziy va amaliy ifodasidir. Milliy valyutaga ega bo'lish davlatga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Markaziy bank foiz stavkalarini, pul massasini va inflyatsiyani boshqarish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtiradi, xalqaro moliyaviy tizimga qaramlikni kamaytiradi va moliyaviy inqirozlardan himoya qiladi, mustahkam milliy valyuta xalqaro bozorda davlatga bo'lgan ishonchni ifodalaydi, bu belgi suverenitet (iqtisodiy mustaqillik) va hokimiyat (iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasi) belgilarini amalga oshirishning asosiy vositasidir.

Asosiy va qo'shimcha belgilar tahlili shu edi. Undan bitta umumiy xulosa shuki, qo'shimcha belgilar asosiy belgilarni to'ldirib, ularni murakkab, rivojlangan va xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi zamonaviy davlat darajasiga ko'taradi.

Endi esa boshida aytgan uchta savolimizning ikkinchisiga batafsil to'xtalamiz, ya'ni soliqlarga. Soliqlar davlatning barcha asosiy va qo'shimcha belgilarini bir-biriga bog'lovchi va ularni amaliy hayotga tadbiq etish imkonini beruvchi moliyaviy asos hisoblanadi. U davlatning boshqa belgilarini abstrakt tushunchalardan haqiqiy, ishlaydigan institutlarga aylantiradi. Davlatning barcha belgilari o'zaro bog'liq bo'lib, soliq tizimi ularning o'zaro ta'sirini ta'minlovchi asosiy mexanizm vazifasini o'taydi.

Soliqlar davlat hokimiyatining ajralmas qismlari bo'lgan armiya, sud, davlat apparati faoliyatini hamda 11-sinf maktab darsligida davlatning boshqa ehtiyojlarini moddiy jihatdan ta'minlash uchun zarur deb ta'riflanadi va bu qo'shimcha tarzda mil.avv XVIII asrda eng qattiq qonunlardan biri Hammurappi qonunlarida o'z aksini topgan. Unda Soliq huquqining ilk yozma me'yorlari Hammurapi qonunlarida (er. avv. XVIII asr) ko'rsatib o'tilgan bo'lib, birinchidan, soliqlarning ikki ko'rinishi: podsho xazinasiga to'lanadigan markazlashgan soliqlar va mahalliy oqsuyaklar xazinasiga to'lanadigan mahalliy soliqlar; ikkinchidan, soliq subyektlari; uchinchidan, soliq obyektlari; to'rtinchidan, soliqlarni undirish tartibi; beshinchidan, javobgarlik choralari va boshqalar mustahkamlab qo'yilgan.

Mana bunga O'zR konstitutsiyasidan bitta norma va uning tahlilini ko'rib chiqamiz.

14-modda.

"Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi". [5]

Shu moddada aynan davlatning asosiy belgilardan birini tashkil qiluvchi aholi farovonligini ta'minlash maqsadida soliqlar qabul qiladi dedik, o'sha qabul qilingan soliq 14-moddadagi prinsiplarga mos bo'lishi kerak ya'ni qabul qilingan soliq:

- IJTIMOY ADOLATLI
- BIRDAMLI

Bo'lishi kerak, qabul qilingan soliq qonuniy bo'lishi normalarda mustahkamlanishi, buzgan javobgarlikka tortilishi bilan o'z aksini topadi, bunga O.T.Husanov Shunday bir ta'rif beradi. "Qonuniylik prinsipi — osoyishta hayot, rivojlanish va taraqqiyot, yuksak turmush tarzi oziqasidir. Qonuniylik prinsipi amal qilganda, xavfsizlik, fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanadi. Har bir fuqaro hayotda o'z o'rniga ega bo'ladi", [8] keying prinsipi bo'lmish ijtimoiy adolat ungaham yana yuqoridagi olim shunaqa ta'rif beradi "Ijtimoiy adolat hududdagi barcha fuqarolarning manfaati, ularning ish joyi, mulkiy ahvolidan qat'i nazar, teng himoya qilinishida, yordamga muhtojlarga alohida g'amxo'rlik qilinishida, ularni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilishida namoyon bo'ladi." [8] Ya'ni mantiqiy metoddan foydalangan holda tahlil qilsak, qabul qilinga soliq bekorga emas aynan fuqarolar manfaati uchun xizmat qilishi kerak, sizning SOLIQ tizimi haqidagi tasavvuringizni shakllantirish uchun, tafakkur uchun, o'ylab ko'ring jamiyatning turli sohalarda hoh ijtimoiy soha, hoh iqtisodiy bo'lsin mayli siyosiy sohada uning rivoji uchun jamiyatning yollanma xizmatkori bo'lmish davlat mablag'ni qayerdan oladi deb o'ylaysiz, albatta siz-u biz to'layotgan soliqlardanda. Endi buni amaliy misollar bilan ko'rib chiqsak. Davlat maktablar va davlat kasalxonalarini ochadi va ularni pul mablag'lari bilan ta'minlaydi. Ya'ni davlat maktablar va davlat kasalxonalarini ochadi va ularni pul mablag'lari bilan ta'minlaydi. Korxonalar daromad solig'ini to'laydi, ishchilarga qarasak ularning maoshlaridan soliq undiriladi, tovarlar sotib olinganda QQS to'lanadi. To'plangan mablag'lar byudjet hisobvarag'iga tushadi va keyin ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma kabi sohalarga ajratiladi. Soliqlarsiz davlat byudjeti bo'lmaydi, byudjetsiz esa bepul maktab, kasalxona, politsiya xizmati, yo'l-ko'priklar qurilishi va boshqa ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishning iloji yo'q bu bittagina misol bunga o'nlab, hatto yuzlab misollar keltirish mumkin. Soliqqa soliq solish nazariyasi asoschilaridan biri A.SMIT "Soliqlar ularni to'lovchi shaxslar uchun qullik emas, balki ozodlik alomatidir" Soliq haqidagi umumiy tushunchalar shulardan iboratdir.

Va oxirgi savolamizga to'xtalsak davlatning vujudga kelishi haqida turli xil qarashlar mavjud, bizga ma'lum tarixdan bilishimiz mumkin ilk davlatchilik qayerda vujudga kelganini, qachon vujudga kelganini, ammo bu haqida biz faqat yozma manbalardan bilishimiz mumkin, nimaga deganda, yozuv paydo bo'lishidan oldingi davr pre-history davrda ham ham davlat mavjud bo'lgan bo'lishi mumkinku, to'g'rimi? Hozir hammasiga batafsil to'xtalib o'tamiz. Davlatga o'zi aniq bir izoh aniq bir ta'rif yoq lekin hozir biz qo'ldan kelgancha yoritamiz. 8-sinf huquq darsligida davlatga shunaqa ta'rif berilgan "Davlat – majbur qilish kuchiga, ya'ni hokimiyatga ega bo'lgan, o'z fuqarolari, shuningdek, hududida istiqomat qiluvchi barcha insonlarning manfaatlarini himoya qiladigan, boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni amalga oshiradigan mustaqil siyosiy tashkilotdir." [9] Bu ta'rifda majbur qilish kuchiga ega deyilgan, bir tomondan to'g'ri ammo hozirgi tarqatqiy etgan, insonning huquq va erkinliklari ulug'lanadigan bir paytda, MAJBURLASH atamasi bir muncha qo'polroq va eskiroq, hozir bu so'z hokimiyat so'zi almashgan, ya'ni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, manaviy sohalarda kuchga ega bo'lgan tuzilma ma'nosida va bu albatta birmuncha yaxshiroq. Endi asosiy qism bo'lgan nazariyalarga to'xtalsak. Davlatning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar asosan ikkita asosiy yo'nalishda: Ijobiy (konsensus) va Salbiy (konflikt) nuqtai nazarlarda shakllangan. Endi bular ham o'z navbatida turlarga bo'linadi.

Birinchisi bu ILOHIY NAZARIYA boshqacha qilib aytganda, teologik nazariya. Uning o'z asoschilari bor ya'ni bu nazariyaning Avreliy Avgustin, Famoma Akvinskiy ularning fikricha: Davlat hokimiyati xudoning irodasi va uning yer yuzidagi vakili (monarx, podshoh) tomonidan amalga oshiriladi. Hokimiyat ilohiy kelib chiqishga ega bo'lib, unga qarshi chiqish xudoga qarshi chiqish hisoblanadi. [10] Uni atoflicha izohlasak, bu eng qadimgi nazariyalardan biri bo'lib, diniy jamiyatlarda hukmdorlarning hokimiyatini legitimlashtirish uchun ishlatilgan. Nazariya hokimiyatning mutlaq va qarorsizligini asoslaydi. O'sha paytdagi jamiyat din orqali boshqarilgan. Zamonaviy dunyoda ushbu nazariya o'zining ilmiy asosiga ega emasligi sababli qabul qilinmaydi, ammo tarixiy ahamiyati juda katta. Albatta istisno davlatlar ham bor.

Keyingi nazariyamiz bu IJTIMOIIY SHARTNOMA NAZARIYASI dir bu nazariya asoschilari Tomas Gobbs, Jon Lokk, Jan-Jak Russo shunday asoslaydi fikrlarini: Davlat tabiiy holatdagi odamlar o'rtasida tuzilgan shartnomaning natijasidir. Odamlar o'zlarining tabiiy huquqlarining bir qismidan yoki ularni boshqarish huquqidan voz kechib, tartib va xavfsizlikni ta'minlovchi markaziy hokimiyat – davlatni yaratadilar. Bu nazariya davlatning ilohiy emas, balki insoniy kelib chiqishi g'oyasini ilgari surdi va zamonaviy demokratik davlatning huquqiy asosini yaratdi. [11] Nazariya hokimiyatning xalq irodasi asosida shakllanishi va uning oldida javobgarlik talab qiladi. Biroq, "tabiiy holat" va "shartnoma" tarixiy hodisa sifatida emas, balki mantiqiy faraz sifatida tushunilishi kerak.

Keyingi nazariyamiz ZO'RLIK NAZARIYASI bu nazariya asoschilari, Lyudvig Gumplovich, Karl Kautsky ular davlat vujudga kelishi haqidagi bu nazariyaga shunday ta'rif beradi: Davlat – bu bir ijtimoiy guruh (g'olib qabila, sinf, irq) boshqa guruhni (mag'lub qabila, sinf, irq) bo'ysundirish va ekspluatatsiya qilish uchun yaratgan tashkilotdir. Hokimiyat zo'rlik va zo'ravonlik asosida shakllanadi. [12] Bu nazariya ham o'z tahliliga egadir. Ushbu nazariya davlatning paydo bo'lishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar va sinfiy kurashning rolini ta'kidlaydi. Bu yondashuv marksizm va sotsiologik maktablarga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Nazariya tarixdagi ko'plab istilo va mustamlakachilik hodisalarini tushuntirishga yordam beradi. Biroq, u barcha davlatlarni faqat zo'rlov va istismar (Turkchadan olingan so'z, SUIISTE'MOL va EKSPLYATATSIYA) vositasi sifatida ko'rib, ularning ijtimoiy tartib, madaniyat va iqtisodiy rivojlanishdagi ijobiy rolini ko'rib chiqmaydi.

Keyingi nazariya bu PATRIARXAL NAZARIYA dir, bu o'z nomi bilan OTA boshqaruvga asoslangan buni birinchi bor Robert Filmer shunday ta'riflaydi: "Davlat – bu katta oila (qabila) bo'lib, uning boshida otaning hokimiyati turadi. Podshoh – bu butun xalqning otasi (patriarx) hisoblanadi va uning hukmronligi oiladagi otaning hukmronligi kabi tabiiy va qarorsizdir." [13] Albatta **ota** katta rol o'ynagan, bu nazariya ilohiy nazariyaga yaqin bo'lib, monarxiyani asoslashga xizmat qilgan. U qadimgi qabila tuzumidan davlat tuzumiga o'tish jarayonining bir jihatini (hokimiyat meros qilib olinishi) to'g'ri aks ettiradi, ammo davlatning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini oilaviy munosabatlar darajasiga soddalashtirib yuboradi.

Umumiy nazariyalardan oxirgisi bu MATERYALISTIK NAZARIYA dir. Bu nazariyaga Karl Marks, Fridrix Engels shunday ta'kidlaydi: "Davlat – bu iqtisodiy jihatdan hukmron sinf (masalan, feodallar yoki burjuaziya) tomonidan boshqa sinflarni (dehqonlar yoki proletariat) bo'ysundirish va ekspluatatsiya qilish uchun ishlatiladigan quroldir. Davlat sinfiy kurashning dastlabki bosqichida mulkchilikning paydo bo'lishi va jamiyatning sinflarga bo'linishi natijasida vujudga kelgan." [14] Ya'ni Marksistik nazariya davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishdagi sinfiy xarakterini chuqur tahlil qiladi. U davlatning iqtisodiy asosga ega ekanligini va qonunlar,

siyosat iqtisodiy munosabatlarning ifodasi ekanligini ta'kidlaydi. Biroq, marksistik nazariya ham zo'rlov nazariyasi kabi davlatning boshqa funktsiyalarini (masalan, ijtimoiy farovonlik, jamoat xizmatlari) yetarlicha e'tiborga olmaydi va uni faqat "sinfiy zulm apparati" sifatida ko'radi.

Xulosa qilib aytganda, davlat muayyan hudud va aholiga ega bo'lgan, suveren hokimiyat apparati tomonidan boshqariladigan tashkilot. Uning asosiy belgilari hudud, aholi, hokimiyat va suverenitet. Qo'shimcha belgilari: pul birligi, davlat ramzlari, soliq tizimi va fuqarolik kabilar. Soliq tizimi davlatning moliyaviy asosi bo'lib, byudjetni to'ldirish, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish imkonini beradi. Davlat turli nazariyalar (shartnoma, zo'ravonlik, iqtisodiy va boshqalar) asosida shakllangan bo'lsada, uning mohiyati barcha belgi va mexanizmlarning uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. ODILQORIYEV.X.T Davlat va huquq nazariyasi. – T., 2018. – 73-74-betlar
2. Weber, M. (1919). Politics as a Vocation
3. Сайидов А. Х. (2015). Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Тошкент. 89-бет.
4. Jacobs, J. (1961). The Death and Life of Great American Cities
5. Lex.uz <https://lex.uz/uz/>
6. Хидоятов Б. (2018). Давлат ҳокимияти ва унинг
7. Bodin, J. (1576). Six Books of the Commonwealth
8. O.T.HUSANOV Kons.huquq-2017 p.68, p.224
9. 8-sinf huquq darsligi-2018 4-mavzu bet.23
10. Avgustin, A. (426). De Civitate Dei (Xudo Davlati haqida). Kitob XIX, 17-bob.
11. Hobbes, T. (1651). Leviathan. 2-qism, 17-bob
12. Gumplowicz, L. (1883). Der Rassenkampf (Irqlar Kurashi). 5-bo'lim.
13. Filmer, R. (1680). Patriarcha, or The Natural Power of Kings (Patriarx, yoki Podshohlarning Tabiiy Hokimiyati). 1-bo'lim
14. Engels, F. (1884). Der Ursprung der Familie, des Privateigentums und des Staats (Oila, Xususiy Mulkiyat va Davlating Kelib Chiqishi). IX bob.